

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

**BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA YORDAMI MUASSASALARI
FAOLIYATIGA MUTLAQO YANGI MEXANIZMLARNI JORIY QILISH
VA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN
ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISH CHORA-
TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish doirasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish, kasalliklarni profilaktika qilish va barvaqt aniqlash, malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash, sohaga yangi boshqaruvni joriy qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, dunyoda epidemiologik xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotgani kasalliklarga qarshi kurashish faoliyatidagi yondashuvlarni, hozirgi murakkab sharoit va orttirilgan tajribalardan kelib chiqib takomillashtirishni talab etmoqda, ayniqsa, ularning profilaktikasi, erta aniqlash, to'g'ri tashxislash hamda davolashda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari ish uslublarini qayta ko'rib chiqib, sog'liqni saqlashni tashkil etishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish zarur.

Aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini oshirish, tibbiyot xodimlarining jamiyatdagi o'rni va maqomini kuchaytirish, sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida:

1. Quyidagilar sog'liqni saqlash tizimini bugungi bosqichda isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari deb hisoblansin:

mavjud kuch va vositalarni jalb qilgan holda, eng avvalo birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini har tomonlama mustahkamlash, tibbiy profilaktika va patronaj tizimining mutlaqo yangi tizimini joriy qilish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va aholi jamoat salomatligini ta'minlashning mahallalar va aholi xonadonlari darajasigacha qamrab oladigan yaxlit tizimini yaratish, bu borada avvalambor sog'lom turmush tarzi va jismoniy faollikni oshirishni tizimli tashkil etish hamda keng targ'ib qilish;

sohada yetuk va chuqur bilimga ega kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda raqobat muhitini yaratish, ilg'or xorijiy tajribaga asosan xodimlarni kasbiy rivojlantirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot ilm-fanini rivojlantirish orqali joylardagi tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish;

tibbiyot xodimlarining jamiyatdagi o'rni va maqomini kuchaytirish, xalqimiz o'rtasida ularga nisbatan hurmatni oshirish, ushbu kasb egalari uchun munosib mehnat sharoitini yaratish va

daromadini ko'paytirish, shuningdek, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish; sohaga zamonaviy menejmentini joriy etish, boshqaruv jarayonidagi ortiqcha va byurokratik tartib-tamoyillarni qisqartirish, sog'liqni saqlashni moliyalashtirish tizimining samaradorligini oshirish hamda raqamli tibbiyotni takomillashtirish.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi takomillashtirilgan tibbiy profilaktika va patronaj xizmati joriy qilinsin:

aholi ularning salomatlik va fiziologik holatidan kelib chiqib, tegishli guruhlariga (tayanch, past xavf guruhi, o'rta xavf guruhi, yuqori xavf guruhi va boshqalar) bo'linadi;

aholi guruh mansubligiga ko'ra belgilangan muddatlarda tibbiy ko'riklardan o'tadi va salomatligi davriy kuzatuvga olinadi;

mustaqil ravishda tibbiyot muassasasiga kela olmaydigan bemorlar doimiy kuzatuvga olinadi hamda uyiga borgan holda ularga tibbiy xizmat ko'rsatiladi va individual patronaj amalga oshiriladi;

profilaktik ko'riklar o'rniga hududning o'ziga xos xususiyatlari va aholining guruhga mansubligidan kelib chiqib, muayyan kasalliklar bo'yicha davriy tibbiy skrining tekshiruvlari o'tkaziladi;

patronaj ko'riklarini maqbullashtirib, yangilangan maqsadli patronaj tizimi joriy qilinadi;

umumiy amaliyot shifokori mutaxassisligi oilaviy shifokor etib qayta nomlanadi, shuningdek, tibbiyot oliy ta'lim muassasalaridagi fan dasturlari oilaviy shifokor tayyorlashga moslashtiriladi;

tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari va viloyat shifoxonalariga bepul tibbiy yordam ko'rsatilishi uchun yo'llanma bevosita oilaviy shifokor tomonidan beriladi;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida dori vositalari va tibbiy buyumlarga imtiyozli retseptlar yozib berish bevosita oilaviy shifokor tomonidan amalga oshiriladi;

oilaviy shifokorga yordam beradigan terapiya, pediatriya, akusherlik, patronaj bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlaridan iborat bo'lgan "tibbiyot brigadalari" tashkil qilinadi;

profilaktika inspektorlari mahallalarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda oilaviy shifokorlarga ko'maklashadi, fuqarolarning kechki sayrlari va sport o'yinlarining xavfsiz o'tkazilishini tashkil qiladi. Bunda, profilaktika inspektorlari mahallalardagi aholining salomatlik ko'rsatkichlariga qarab har 6 oyda mahalliy budjet mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan rag'batlantiriladi;

"tibbiyot brigadalari" o'zlariga biriktirilgan hududlarda oilalar va fuqarolar kesimida "tibbiy xarita"ni shakllantiradi;

joylarda tibbiy xizmat ko'rsatishni soddalashtirish va raqamlashtirish hamda ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytirish

maqsadida “tibbiyot brigadalari” maxsus kompyuter-planshetlari, mobil tibbiyot-diaagnostika vositalari bilan ta’minlanadi.

Sog’liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev):

Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov, J.I. Abro’yev), Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ajratilgan mahalliy budget mablag’lari doirasida yil yakuniga qadar takomillashtirilgan tibbiy profilaktika va patronaj xizmatining [1-ilovada](#) keltirilgan 26 ta tuman (shahar)larda ustuvor ravishda to’liq joriy qilinishini ta’minlasin;

yil yakuniga qadar aholi salomatlik va fiziologik holatidan kelib chiqib, aholi bo’lingan guruhlarning aniq tasnifini tasdiqlasin;

takomillashtirilgan tibbiy profilaktika va patronaj xizmatini bosqichma-bosqich respublikaning boshqa hududlarida joriy qilsin;

ikki hafta muddatda “tibbiyot brigadalari”ni mobil tibbiyot-diaagnostika vositalari bilan ta’minlash maqsadida ularning aniq ro’yxatini tasdiqlasin.

Qoraqalpog’iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ikki oy muddatda:

mahalliy budget mablag’lari hisobidan “tibbiyot brigadalari”ni maxsus kompyuter-planshetlari va mobil tibbiyot-diaagnostika vositalari bilan ta’minlasin. Bunda, mazkur vositalar xaridi Sog’liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona texnik talablar asosida amalga oshirilishi inobatga olinsin;

tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari bilan birgalikda aholini xatlovdan o’tkazib, ularni birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalariga birliktirsin.

3. Shunday tartib o’rnatilsinki, unga muvofiq:

2021-yil 1-yanvardan boshlab qishloq vrachlik punkti oilaviy shifokor punkti deb, qishloq va shahar oilaviy poliklinikasi esa oilaviy poliklinika deb qayta nomlanadi. Bunda, ushbu chora-tadbirlar mavjud shtat birliklari doirasida amalga oshiriladi;

aholi soni va mahalliy zaruriyatdan kelib chiqib, shuningdek, Sog’liqni saqlash vazirligining ro’yxatiga muvofiq oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar va ko’p tarmoqli markaziy poliklinikalarda tunu-kun navbatchi tibbiyot xodimi xizmat ko’rsatadi;

mahallada aholining salomatligi, hududdagi kasalliklarning o’sishi, aholining shifoxonalarga yotishi, shoshilinch tibbiy yordam xizmatiga murojaat qilishi va boshqalar oilaviy shifokorning faoliyati natijadorligini baholash ko’rsatkichlari etib belgilanadi;

2021-yil 1-yanvardan boshlab oilaviy shifokor va boshqa tibbiyot xodimlari faoliyati samaradorligi bo’yicha yangi reyting tizimi joriy qilinadi hamda uning natijalariga qarab ushbu xodimlar mahalliy budgetning qo’shimcha mablag’lari hisobidan har chorakda bazaviy

hisoblash miqdorining 10 baravaridan 30 baravarigacha miqdorda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi;

tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi boshlig'i bir vaqtning o'zida ko'p tarmoqli markaziy poliklinika mudiri hisoblanadi;

2021-yil 1-yanvardan boshlab tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi boshlig'iga ajratilayotgan mablag'lar doirasida, zaruriyatga qarab, tor soha shifokorlari shtatlarini mustaqil belgilash vakolati beriladi;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarining rahbarlariga, zarur hollarda xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan mablag'larni budjet tasnifining xarajatlar guruhlari o'rtasida mustaqil qayta taqsimlash vakolati beriladi;

(3-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-sonli [Farmoniga](#) asosan sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son)

tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi faoliyat dislokatsiyasi bo'yicha ko'p tarmoqli markaziy poliklinika binosida joylashtiriladi.

Sog'liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev) Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.B. Xusanov) bilan birgalikda:

uch oy muddatda ushbu bandeda ko'rsatilgan baholash ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, oilaviy shifokor va "tibbiyot brigadalari" faoliyatini rag'batlantirishning differensial tizimini joriy qilsin;

2021-yil 1-aprelga qadar birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining yangilangan shtat normativlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin.

4. 2021 — 2023-yillarda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarni tashkil etish jadvali [2-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin. Bunda qo'shimcha:

315 ta oilaviy shifokor punktlari, shundan 2021-yilda — 100 ta, 2022-yilda — 105 ta va 2023-yilda — 110 ta;

52 ta qishloqda joylashgan oilaviy poliklinikalar, shundan 2021-yilda — 17 ta, 2022-yilda — 18 ta va 2023-yilda — 17 ta;

33 ta shaharda joylashgan oilaviy poliklinikalar, shundan 2021-yilda — 7 ta, 2022-yilda — 13 ta va 2023-yilda — 13 ta tashkil etiladi.

Quyidagilar qo'shimcha oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarni tashkil etishning moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar, Toshkent shahar mahalliy budjetlari mablag'lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari qo'shimcha tashkil etilayotgan oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyatini to'liq yo'lga qo'yish, ularni malakali xodimlar bilan ta'minlash va mazkur Farmonda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni ular faoliyatiga joriy qilish bo'yicha shaxsan mas'ul ekanliklari belgilab qo'yilsin.

5. Belgilansinki, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab:

[*Oldingi tahrirga qarang.*](#)

mavjud ehtiyojdan kelib chiqib Qarshi davlat universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat pedagogika instituti va Guliston davlat universitetida tibbiyot fakultetlari tashkil qilinadi, shu jumladan ularda va boshqa tibbiy oliy ta'lim muassasalarida yetakchi xorijiy tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari bilan qo'shma ta'lim dasturlari asosida o'qitish tizimi joriy qilinadi;

(5-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PF-258-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son)

tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarining viloyat tibbiyot muassasalari, oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarda klinik bazalari tashkil qilinadi va ularning bitiruvchi kurs talabalari ushbu klinik bazalarda o'quv amaliyotini o'taydi;

Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlari va tibbiyot kollejlari oilaviy shifokorlar yordamchilarini tayyorlash tizimi joriy qilinadi. Bunda Sog'liqni saqlash vazirligi Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalari va takliflarini hisobga olgan holda texnikumlar va kollejlarda oilaviy shifokorlar yordamchilarini tayyorlashning mutlaqo yangi tizimini joriy qiladi;

Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlari va tibbiyot kollejlari oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarga birlashtiriladi, ularning o'quvchilari ixtisosligidan kelib chiqib ushbu muassasalarda amaliyot o'taydi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari bilan birgalikda mazkur bandda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

6. 2021-yildan boshlab olis va chekka hududlarda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalari shifokorlari uchun "Qishloq shifokori" dasturi joriy qilinsin.

Belgilansinki, "Qishloq shifokori" dasturi doirasida:

[*Oldingi tahrirga qarang.*](#)

boshqa hududda yashovchi shifokorlar olis va chekka hududlarda joylashgan oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalariga ishga qabul qilinganda ularga kamida 3 yil ishlab berish sharti bilan 30 million so'm miqdorida bir martalik pul

mablag'lari, uy-joyi bo'lmaganlarga esa 3 yil davomida xizmat uy-joylari beriladi yoki bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida har oylik ijara to'lovlari Davlat budjetidan kompensatsiya qilinadi;

(6-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PF-6221-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son)

olis va chekka hududlar ro'yxati Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari tomonidan olis va chekka hududlardagi shifokorlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib bo'sh shifokor ish o'rinlari ro'yxati tuziladi va muntazam yangilanib turiladi;

mazkur bandda ko'rsatilgan imkoniyatlardan foydalanish uchun shifokorlar bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari o'rtasida shartnoma tuzib boriladi.

“Qishloq shifokori” dasturini moliyalashtirish Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti va viloyatlar mahalliy budjetlari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari:

bir oy muddatda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalardagi shifokorlarga bo'lgan ehtiyojlarni va talabgorlarni har bir mahalla kesimida aniqlasin, ularga uy-joy ajratish va mablag' berishni ta'minlasin, shuningdek, ularni tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida tayyorlash bo'yicha qabul parametrlarini oshirish yuzasidan Sog'liqni saqlash vazirligiga taklif kiritsin;

tuman hokimlari va tijorat banklari bilan birga ipoteka dasturlari asosida qurilayotgan uy-joylarni avvalo oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarga ishga qabul qilinayotgan shifokorlar uchun ajratishni ta'minlasin.

Moliya vazirligi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda mazkur bandda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun kelgusi yilda Davlat budjetidan 20 milliard so'mgacha mablag' ajratsin.

7. Quyidagilar taqiqlansin:

tibbiyot xodimlarini xizmat majburiyati bilan bog'liq bo'lmagan barcha turdagi ishlarga jalb qilish;

tibbiyot xodimlarini ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish, ularning bosma nashrlarga majburan obuna bo'lishini tashkil etish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, tuman va shahar hokimlari, boshqa

davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari mazkur talablar buzilgan hollarda tegishli javobgarlikka tortilishi haqida qat'iy ogohlantirilsin.

Bosh prokuratura (N.T. Yo'ldoshev) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda tibbiyot xodimlarining huquq va erkinliklarini cheklash holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish maqsadida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan muntazam ravishda nazorat tadbirlarini o'tkazsin hamda aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishini ta'minlasin.

8. Belgilab qo'yilsinki:

mulkchilik shaklidan qat'i nazar har bir korxonada, muassasa va tashkilot ish beruvchisi o'z xodimlarining tibbiy tekshiruvdan o'tadigan kuni ushbu tibbiy jarayondan o'tishlari uchun shaxsan mas'ul hisoblanadilar;

mulkchilik shaklidan qat'i nazar har bir korxonada, muassasa va tashkilotga ishga qabul qilinayotgan xodimlar o'zlari tibbiy tekshiruvdan o'tadigan kuni to'g'risida ish beruvchilarni majburiy tarzda xabardor qiladi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N.B. Xusanov) Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan ushbu talablarning ish beruvchilar tomonidan rioya qilinishi ustidan tizimli nazorat o'rnatilishi, zarur hollarda, ularni buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda ta'sir choralar ko'rilishini ta'minlasin.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi tegishli soha va tashkilot kasaba uyushmalarini jalb qilgan mazkur badda ko'rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xodimlar va ishchilarning mehnatiga oid, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilishda samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tavsiya etilsin.

9. 2021-yil 1-yanvardan boshlab bosqichma-bosqich ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining ishchi va xizmatchilarga jarohat yetkazish xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish o'rniga mehnat sharoitlarini maxsus baholash tizimi joriy etilsin.

Belgilab qo'yilsinki:

maxsus baholash jarayonida birinchi navbatda ish o'rinlaridagi xavfli va zararli omillarning xodim salomatligi darajasiga ta'sirini bartaraf etishga qaratiladi;

maxsus baholovchi xodimlar tarkibiga oliy ma'lumotga ega bo'lgan mehnat gigiyenasi mutaxassisi majburiy tarzda kiritiladi;

maxsus baholash faqatgina shtat birligidagi xodimlarida maxsus baholash bo'yicha ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan guvohnomasi mavjud tashkilot (yuridik shaxslar) tomonidan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasini:

maxsus baholash tizimining 2021 — 2023-yillar mobaynida to'liq joriy qilinishini ta'minlasin;

2021-yil 1-yanvarga qadar mehnat sharoitlarini maxsus baholash bo'yicha ma'lumotlarni kiritish hamda tahlil qilish mexanizmini joriy qilish uchun yagona elektron platforma bazasi yaratilishini va 2021-yil 1-fevralga qadar uning to'liq ishga tushirilishini ta'minlasin.

10. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan 2014-yilda Palliativ tibbiy xizmatni rivojlantirish bo'yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilinganligi inobatga olinsin.

Sog'liqni saqlash vazirligi (A.Sh. Inoyatov, E.I. Basitxanova) Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va YUNISEFning ekspertlarini jalb qilgan holda, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda 2021-yil 1-mayga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 — 2025-yillarda O'zbekistonda palliativ tibbiy xizmatni rivojlantirish konsepsiyasini maqsadli ko'rsatkichlar (indikatorlar) hamda uni amalga oshirishga doir yillar bo'yicha "Yo'l xaritasi" bilan birgalikda tasdiqlashni nazarda tutuvchi qarori loyihasini belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

11. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (A.E. Burxonov) Sog'liqni saqlash vazirligi (A.M. Xadjibayev) bilan birgalikda bir oy muddatda sog'liqni saqlash tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish dasturini ishlab chiqsin. Bunda, har bir oilaviy shifokor punkti, oilaviy poliklinika va shifoxonaning kirish joylarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chaqiriqlar, "ishonch telefonlari" va boshqa targ'ibot materiallari joylashtirilsin.

12. "O'zbekkino" Milliy agentligi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka to'g'ri yetkazish maqsadida tibbiyot xodimlarining kasbini ulug'lovchi videoroliklar, ilmiy-ommabop ko'rsatuvlar, badiiy va hujjatli filmlarni ishlab chiqsin, televideniye orqali doimiy namoyish qilsin hamda ijtimoiy reklama sifatida ularni televideniye va radiokanallarda joylashtirsin.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ushbu Farmonning maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritish ishlarini tashkillashtirsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hududiy telekanallar va ommaviy axborot vositalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholi jamoat salomatligini ta'minlash, mazkur Farmonning maqsad va

vazifalarini keng yoritish ishlarini doimiy ravishda tashkillashtirib borsin.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga [3-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

14. Sog'liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib sog'liqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev, sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari A.Sh. Inoyatov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari L.N. Tuychiyev, sog'liqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev va sog'liqni saqlash vazirining birinchi o'rinbosari A.Sh. Inoyatov har chorakda ushbu Farmon ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borsin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari L.N. Tuychiyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 12-noyabr,
PF-6110-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-son [Farmoniga](#)

1-ILOVA

Yangi tibbiy profilaktika va patronaj tizimi ustuvor ravishda joriy qilinayotgan tuman (shahar)lar ro'yxati

T/r	Hududlar	Tuman (shahar)lar
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1. Beruniy tumani 2. Nukus shahri
2.	Andijon viloyati	3. Qo'rg'ontepa tumani 4. Andijon shahri
3.	Buxoro viloyati	5. Vobkent tumani 6. Kogon shahri
4.	Jizzax viloyati	7. Mirzacho'l tumani 8. Jizzax shahri
5.	Qashqadaryo viloyati	9. G'uzor tumani 10. Qarshi shahri

6.	Navoiy viloyati	11. Xatirchi tumani 12. Navoiy shahri
7.	Namangan viloyati	13. To‘raqo‘rg‘on tumani 14. Namangan shahri
8.	Samarqand viloyati	15. Ishtixon tumani 16. Kattaqo‘rg‘on shahri
9.	Surxondaryo viloyati	17. Oltinsoy tumani 18. Termiz shahri
10.	Toshkent viloyati	19. Oqqo‘rg‘on tumani 20. Chirchiq shahri
11.	Farg‘ona viloyati	21. Oltiariq tumani 22. Marg‘ilon shahri
12.	Xorazm viloyati	23. Urganch tumani 24. Urganch shahri
13.	Toshkent shahri	25. Bektemir tumani 26. Olmazor tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-son [Farmoniga](#)

2-ILOVA

2021 — 2023-yillarda oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarni tashkil etish jadvali

T/r	Hududlar	OS hP*	OP **	OP ***	shu jumladan:								
					2021-yil			2022-yil			2023-yil		
					OS hP*	OP **	OP ***	OS hP*	OP **	OP ***	OS hP*	OP **	OP ***
1.	Qoraqalpo g‘iston Respublik asi	28	2	1	8	2		10		1	10		
2.	Andijon viloyati	29	10	1	9	4		10	3	1	10	3	
3.	Buxoro viloyati	3		2	1			1		1	1		1
4.	Jizzax viloyati	25	3		8	1		8	1		9	1	
5.	Qashqadar yo viloyati	25	5		8	1		8	2		9	2	
6.	Navoiy viloyati	24	3	2	8	1		8	1	1	8	1	1
7.	Namangan viloyati	27		7	10		2	8		2	9		3
8.	Samarqan d viloyati	20	10	4	6	4	1	7	3	1	7	3	2
9.	Sirdaryo viloyati	19			7			7			5		
10.	Surxondar yo viloyati	36	3	2	12	1		11	1	1	13	1	1

1 1.	Toshkent viloyati	28	6	6	8	2	1	10	2	2	10	2	3
1 2.	Fargʻona viloyati	32	14	2	10	5	1	10	5	1	12	4	
1 3.	Xorazm viloyati	19		4	5		1	7		1	7		2
1 4.	Toshkent shahri			2			1			1			
Jami		315	52	33	100	17	7	105	18	13	110	17	13

* Oilaviy shifokor punktlari.

** Qishloqlarda joylashgan oilaviy poliklinikalar.

*** Shaharlarda joylashgan oilaviy poliklinikalar.

Kelgusida oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar (yuridik maqomga ega boʻlmagan) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining asoslangan takliflariga muvofiq mahalliy budjet mablagʻlari hisobidan Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil qilinadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-son [Farmoniga](#)

3-ILOVA

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan oʻzgartirishlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi “Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PF-5519-son Farmonida rus tili matnidagi 1-ildavda “Sektor zdravooxraneniya 3” bloki “Sektor zdravooxraneniya i vnedreniya sistemi meditsinskogo straxovaniya 5” bloki bilan almashtirilsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrda “Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-5590-son Farmonining [3-bandida](#):

a) [ikkinchi xatboshidagi](#) “2019-yil 1-apreldan” soʻzlari “2022-yil 1-yanvardan” soʻzlari bilan almashtirilsin;

b) [uchinchi xatboshidagi](#) “2020-yil 1-apreldan” soʻzlari “2022-yil 1-yanvardan” soʻzlari bilan almashtirilsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5863-son Farmoni [2-ilovasi](#) 11-pozitsiyasi “Ijro muddatlari” ustunidagi “2020-yil 1-oktabr” soʻzlari “2021-yil 1-mart” soʻzlari bilan almashtirilsin.

4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi “2017 — 2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Ilm,

ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-son Farmoni [ilovasida](#):

a) 129-pozitsiyasida:

"Bajarish muddati" ustunidagi "2020-yil 1-noyabr" so'zlari "2021-yil 1-mart" so'zlari bilan almashtirilsin;

"Ijro uchun mas'ullar" ustunidagi "Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiyasi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi" so'zlari "Sanepidxizmat" so'zi bilan almashtirilsin;

b) 267-pozitsiyasi "Bajarish muddati" ustunidagi "2020-yil 30-aprel" so'zlari "2021-yil 1-aprel" so'zlari bilan almashtirilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5995-son Farmoni [2-ilovasi](#) 2-pozitsiyasi "Ijro muddati" ustunidagi "2020-yil 1-oktabr" so'zlari "2021-yil 15-fevral" so'zlari bilan almashtirilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-iyuldagi "Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6035-son [Farmonida](#):

a) 4-bandi [ikkinchi xatboshidagi](#) "2020-yil 1-dekabr" so'zlari "2021-yil 1-mart" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) [13-bandida](#):

[birinchi xatboshidagi](#) "2020-yil 1-oktabrdan" so'zlari "2021-yil 1-apreldan" so'zlari bilan almashtirilsin;

[yettinchi xatboshidagi](#) "2020-yil 15-oktabr" so'zlari "2021-yil 1-fevral" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) 16-bandning [birinchi xatboshidagi](#) "2020-yil 1-noyabr" so'zlari "2021-yil 1-mart" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) [1-ilovada](#):

18-pozitsiyasi "Bajarish muddati" ustunidagi "2020-yil 1-oktabr" so'zlari "2021-yil 1-may" so'zlari bilan almashtirilsin;

22-pozitsiyasi "Bajarish muddati" ustunidagi "2020-yil 1-oktabr" so'zlari "2021-yil 1-may" so'zlari bilan almashtirilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Shoshilinch tibbiy yordam tizimini jadal takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3494-son qarori 2-ilovasi izohining rus tilidagi [matni](#) quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

") Respublikanskomu nauchnomu tsentru ekstremnoy meditsinskoy pomoshchi (dlya naseleniya Tashkentskoy oblasti i goroda Tashkenta) videlyayutsya 10 spetsializirovannix avtotransportnix sredstv, a takje 1 spetsializirovannoye avtotransportnoye sredstvo iz*

rascheta 500 000 naseleniya dlya Respubliki Karakalpakstan i oblastey.

Isxodya iz geograficheskogo raspolojeniya territoriy, Ministerstvu zdravooxraneniya i Ministerstvu finansov predostavlyayetsya pravo vnosit izmeneniya i dopolneniya v nastoyashiy normativ dlya okazaniya ekstremnoy meditsinskoy pomoshchi naseleniyu v otдалennix regionax respubliki”.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrda “Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko‘lamini yanada kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-4513-son [qarorida](#):

a) 17-bandning [birinchi xatboshidagi](#) “2020-yil 1-yanvarga qadar” so‘zlari “2021-yil 1-aprelga qadar” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) [1-ilova 5](#)-pozitsiyasi “Bajarish muddatlari” ustunidagi “2020-yil 1-fevral” so‘zlari “2021-yil 1-aprel” so‘zlari bilan almashtirilsin.

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.11.2020-y., 06/20/6110/1512-son; 06.05.2021-y., 06/21/6221/0428-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son)